

“O’lchov” tushunchasi va uning paremiologik birliklarda ifodalanishi

Malika Farxodbek qizi Dadaboyeva
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Maqola “o’lchov” tushunchasi haqida so‘z boshlab, paremiologik birliklarda to‘xtalib, “o’lchov” tushunchasini maqol va matallarda qanday aks etishini xulosalaydi.

Kalit so‘zlar: o’lchov, metrologiya, tosh, o’lcham, maqol, matal, paremiya, birlik, miqdor

The concept of “measurement” and its expression in paremiological units

Malika Farkhodbek kizi Dadaboyeva
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: The article begins with the concept of "measurement", stops at paremiological units, and summarizes how the concept of "measurement" is reflected in proverbs and sayings.

Keywords: measure, metrology, stone, size, proverb, matal, paremia, unit, amount

O’lchov - fizik miqdoriy darajani o’lchov vositalari yordamida empirik tarzda topish jarayonidir. O’lchov turlari va usullari metrologya fanining o’rganish obyektidir. Metrologiya o’lchovlar, ularning birligini ta’milash usullari, turlari va kerakli aniqlikka erishish haqidagi fan hisoblanadi.

Bu eng muhim fanlardan biridir, chunki insoniyat mavjud bo‘lganidan beri doimiy ravishda ba’zi o’lchovlar a’malga oshirib kelgan. Masalan, avval ular barmoqlar yoki toshlar yordamida o’lchagan bolsa, keyinroq o’lchov boshqa o’lchov vositalari orqali a’malga oshirilgan, misol uchun, abak.

Metrologiya talablari bo‘yicha o’lchov ikki usulda a’malga oshiriladi:

- to‘g’ridan to‘g’ri va
- taqqoslash usullari orqali.

Zamon zayli bilan o’lchov aniqligiga qo‘yiladigan talablar doimiy ravishda o’sib, o’lchov vositalari esa rivojlanishdadir. Chunonchi, 1918-yilda dunyoda hozirda biz foydalanayotgan metrik tizim joriy qilingunga qadar o’rta Osiyo hududida joylashgan

mamlakatlarda o‘lchov usullarini hamma ham ishlata olishini hisobga olgan holda joriy etishgan. Masalan, insonlar biror narsani, yoki masofani o‘lchovini chiqarish uchun barmoq, qo‘l, qadam, ko‘z, qulqoq, tirsak, tosh va, hatto, o‘z ovozlaridan ham foydalanishgan. Quyida ulardan bir nechasini misol keltiramiz:

- 1 qarich - bosh barmoq bilan jimjaloqning yoyilgan holatdagi uzunligiga teng, ya’ni 19-20 santimetr;
- 1 tutam - 9 santimetr: arqon yoki tayoqni siqib ushlagan qo‘l, to‘rtta barqmoqning kengligiga mos uzunlik birligi.
- 1 enlik - bir barmoq eniga teng: 18-20 milimetr.

Yuqoridagi kabi o‘lchamlar qadimdan xalqlarimiz orasida turli qiymatga ega bo‘lgan o‘lchov vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Jumladan, buyuk shoir, yozuvchi va allomalarimizning qalamiga mansub badiiy asar yoki tarixiy kitoblarni o‘qiganimizda bizga qiymati anchagina notanish bo‘lgan o‘lchov so‘zlariga duch kelamiz. Keling, qomusiy o‘zbek allomasi Abu Rayhon Beruniyga tegishli bo‘lgan “Qonuni ma’sudiy” kitobida berilgan ana shunday o‘lchov so‘zini tahlil qilib ko‘ramiz. Asarda olim o‘zi yasagan globusining qisqacha ta’rifida: ‘diametri 10 cho‘zim bo‘lgan yer kurrasining yarmini ishladi, uning sirtida kenglik va uzunliklarni chizib qo‘ydim’ deb aytgan edi. Ushbu misrada keltirilgan ‘cho‘zim’ o‘lchov bildiruvchi so‘z bo‘lib, 0.5 -0.6 metrga teng. Demak, 10 cho‘zimni 5-6 metrga teng deb olsak, Beruniy diametri 5-6 metrlik yarim globus yasagan.

Bu kabi misollarni Sakkokiy, Maxmur, Lutfiy asarlaridan va, hatto, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G’afur G’ulom, Sharof Rashidov, Nazir Safarov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov Mirmuhsin kabi zamondosh adiblar asarlarida ham uchratish mumkin.

Ammo biz: o‘lchov tushunchasini ifodalovchi bunday o‘lchov so‘zlarini paremiologik birliklarda ham uchratish mumkinmi?; agar mumkin bo‘lsa, ana shunday o‘zbek maqol, matallarini boshqa bir til (ingliz tili)dagи xuddi shunday birliklar bilan taqqoslash orqali qanday izomorfik va alomorfik xususiyatlarni kashf etishimiz mumkin? - degan savollarga javob izlashga qaror qildik.

Avvalo maqol va matallar borasida biroz to‘xtalib o‘tsak. Quyida ‘maqol’ va ‘matal’ terminlariga Azim Hojiyevni o‘zining ‘Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati‘da bergen ta‘riflarini keltirib o‘tamiz:

- maqol - chuqur ma‘noli, tuzilishi gapga alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega bo‘lgan folklor janri. Maqollarda xalqning ko‘p yillik tajribalari hayot hodisalarining ma'lum bahosi aks etadi;
- matal - hayotiy voqealikni ixcham shaklda emotsional-ekspressiv baho bilan tasvirlovchi ifodalar. Matallar nutqda hukmning qismi vazifasida bo‘lishi, hamma vaqt ko‘chma ma‘no anglatish kabi xususiyatlar bilan maqollardan farqlanadi.

Olib borayotgan ilmiy izlanishimiz nafaqat maqollar balki matallarni ham o‘z ichiga olgani uchun ‘paremiya’ terminini emas balki paremiologik birliklar‘ terminini qo‘llashni ma‘qul deb bildik.

O‘zbek xalq maqol va matallariga kelsak ular tunganmas, sermazmun va beqiyosdir. Ularni qachon paydo bo‘lganini aniq bilmasakda, lekin, aminmizki, ular insonlar o‘zligini anglagandan beri mavjud va borgan sari sayqallanib kelmoqda.

Dalillarga tayanadigan bo‘lsak, M. Qo‘shg‘ariy o‘zining ‘Devonu lug‘otit turk‘ asarida kitobni "hikmatli so‘zlar, saj‘lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan ‘adabiy parchalar‘ bilan bezagaanligini aytadi. Haqiqatdan ham, ‘Devonu lug‘tit turk‘da 300 ga yaqin xalq maqollari berilganki, turkiy xalqlarning madaniy me‘rosiga voris sifatida har bir o‘zbek ular bilan faxrlansa arziydi.

Miqdor jihatdan yondashsak, XX asrning 80-yillari oxirida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan 13 mlnga yaqin maqollar alifbo bo‘yicha tartiblashtirilgan holda nashr etildi. Bu misol o‘zbek millatining naqadar ulkan va bebaho madaniy merosga ega ekanligini dalillaydi.

Bu raqamlar orasida o‘lchov so‘zleri qatnashgan maqollar topilishi aniq va son sanoqsiz bo‘lishi mumkin. Quyidagi maqol ham buning yaqqol misoli:

Ahmoqqa Quva bir tosh yoki Ahmoqqa To‘yepa bir tosh. Ushbu maqolda qo‘llanilgan ‘tosh‘ so‘zi masofa o‘lchovini bildiruvchi arxaik o‘lchov so‘zi hisoblanadi. Izohli lig‘atga ko‘ra, tosh sakkiz chaqirimga yaqin. Taxminan 6 kilometrga teng uzunlik o‘lchov birligidir. Milliy ensiklopediyada keltirilishicha, amir yoki podshohning choparlari yo‘l uzunligini o‘lchayotganda har 8 000 qadamga tosh qo‘yib ketgan. Bir qadam o‘rtacha 75 santimetr deb olinsa, bir tosh 6 kilometr chiqadi. Ammo bir tosh qo‘llanish o‘rniga qarab 8-9 kilometrga teng hisoblangan holatlar ham bo‘lgan.

Keltirilgan maqolda esa, Quva yoki To‘yepa uzoq bo‘lsada ahmoq odam ovora bo‘lib borib kelaveradi, ishini bir borishda hal qilmaydi degan ma‘noda anglatish uchun qo‘llanilgan.

Biroq yuqorida ta‘kidlanganidek o‘lchovga qo‘yiladigan talablar doimiy o‘zgaruvchan bo‘lganligi sababli, paremiologik birliklarda qo‘llanilgan o‘lchov so‘zleri jamiyat uchun tushunarsiz bo‘lib boradi. Natijada paremiologik birliklar ham eskiradi degan g‘oyani ilgari surish mumki.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh.S.Alimov 'Tillar o‘qitish metodikasi va ta‘lim texnologiyalari', Andijon.
2. A.Hojiyev 'Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati', Toshkent
3. O.A.Jo‘rayeva 'O‘lchov turlari va usullari' diss. ishi.